

DASTLABKI TERGOVNI TO'XTATISH INSTITUTINING DOLZARB MUAMMOLARI VA TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Qosimov Lazizbek Baxtiyorjon o`g`li

O`zbekiston Respublikasi Huquqni nuhofaza qilish akademiyasi magistranti.

E-mail: lazizbekqosimov1344@mail.ru Tel: (99) 524-22-23.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1154764>

Annotatsiya. Jinoyat protsessual qonunchiligidagi jinoyat ishlarini yuritishda dastlabki tergovni to'xtatish instituti mayjud bo'lib, protsessual muddatlarga amal qilishda mazkur institutdan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Mazkur maqolada jinoyat ishlarini yuritishda qo'llaniladigan dastlabki tergovni to'xtatish institutining huquqiy jihatdan tadbiq qilishda vujudga kelayotgan muammolari hamda mazkur qonunchilikdagi muammolarni bartaraf etish va dastlabki tergovni to'xtatish institutining takomillashtirish masalalariga to'xtalib o'tilgan. Bu borada dastlabki tergovni to'xtatish institutining huquqiy jihatdan takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Dastlabki tergovni to'xtatish, jinoyat-protsessual qonunchiligi, protsessual muddatlar, jinoyat ishini yuritish, javobgarlikka tortish muddati, pandemiya, sud protessi, ayblanuvchi, qidiruv e'lon qilish.

SERIOUS PROBLEMS AND PROSPECTS FOR IMPROVEMENT OF THE PRIMARY INVESTIGATION INSTITUTE

Abstract. In the criminal procedural legislation, there is an institution of suspension of the preliminary investigation in the conduct of criminal cases and the use of this institution is considered important in the observance of procedural deadlines. This article focuses on the problems arising in the legal implementation of the institution of stopping the preliminary investigation, which is used in the investigation and trial of criminal cases, as well as the issues of eliminating the problems in the field of this legislation and improving the institution of stopping the preliminary investigation. In this regard the proposal on the legal improvement of the institution of stopping the preliminary investigation and recommendations have been developed,

Key words. Termination of preliminary investigation, criminal-procedural law, procedural periods, criminal proceedings, term of the prosecution, pandemic, court process, accused, search warrant.

СЕРЬЕЗНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ИНСТИТУТА ПЕРВИЧНЫХ РАССЛЕДОВАНИЙ

Аннотация. В уголовно-процессуальном законодательстве существует институт приостановления предварительного следствия при производстве уголовных дел, и использование этого института имеет большое значение при реализации процессуальных сроков. В данной статье рассматриваются проблемы, возникающие при правовой реализации института прекращения предварительного расследования, которые применяется при расследовании и судебном разбирательстве уголовных дел, а также вопросы устранения проблем в области этого законодательства и совершенствования института прекращения предварительного следствия. В связи с этим разработаны предложения и рекомендации по правовому совершенствованию института прекращения предварительного расследования.

Ключевые слова: Прекращения предварительного следствия, уголовно-процессуальный закон, процессуальные сроки, уголовное производство, срок преследования, пандемия, судебный процесс, обвиняемый, ордер на обыск.

KIRISH

Hozirgi davrda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash dunyo hamjamiyat oldida turgan eng muhim masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Buning zamirida esa jinoyat protsessida shaxsnинг huquq va erkinliklarini himoya qilishni ta'minlaydigan mexanizmlarning takomillashtirilishi alohida ahamiyatga ega. Chunonchi, jinoyat protsessual va boshqa qonunchilik sohalariga ham tadbiq etilayotgan ham o'zining ijobjiy natijasini ko'rsatib kelayotgan liberallashtirish bugungi kunda yanada dolzarb masalalarini ko'tarishni taqazo etmoqda Chunki qonun istuvorligi va inson qadriyatlarini ustunligini ta'minlashni o'z ichiga olgan konstitutsiyaviy talab ham huquqiy demokratik davlat qurish va adolatli fuqarolik jamiyatini shakllantirishning shartlaridan biri hisoblanadi. Sud-huquq tizimidagi shaxsning huquq va manfaatlarini himoya qilish yo'lida demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlari jinoyat protsessual qonunchiligidagi jinoyat ishlarini yuritish yuzasidan dastlabki tergovni to'xtatish institutiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi.

Shu jumladan O'zbekiston Respublikasi ham ko'plab xorijiy davlatlar bilan jinoyat ishlari yuzasidan o'zaro huquqiy yordam ko'rsatish, xususan ayblanuvchilarni ushlab berish to'g'risidagi shartnomaviy munosabatlarga kirishilayotgani va jinoyat ishlarini yuritish sohasida xalqaro hamkorlik qilishga oid protsessual normalarning qayta ishlab chiqilishiga erishildi. Shunga qaramay jinoyat ishlarini yuritishda, dastlabki tergov to'xtatilgan jinoyat ishlari bo'yicha amalga oshiriladigan harakatlarda, sud va huquqni muhofaza qilish organlarining o'zaro hamkorligini yanada sifatli va samarali tashkil etish hali ham muhim vazifalardan bo'lib kelmoqda.

ASOSIY QISM

Jinoyat protsessual qonunchiligidagi dastlabki tergovni to'xtatish instituti jinoyat protsessual huquqi nazariysi hamda huquq sohasidagi olimlarning diqqat e'tiboridagi muhim masalalardan biri hisoblanib keladi. Jaxonning ayrim davlatlarida jinoyat ishlarini yuritishni to'xtatishga yo'l qo'yilmasa-da, aksariyat davlatlarda ish yuritishni aniq protsessual muddatlar bilan cheklanganligi bois jinoyat ishlari yuzasidan dastlabki tergovni to'xtatish qoidalariiga amal qilib kelmoqda. Biroq hozirgi milliy qonunchiligidagi normalarga global unikatsiyalashuvi va xalqaro qoidalarning milliy qonunlarga implementatsiya qilinish jarayoni dastlabki tergovni to'xtatish institutining istiqboliga ham ta'sir etmasdan qolmadi.

Shu jumladan jinoyat-protcessual qonunchiligidagi asosiy normativ-huquqiy hujjat hisoblangan Jinoyat protsessual Kodeksining 364-moddasining 1-qismiga muvofiq jinoyat ishlarini yuritishda surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida:

- 1) ish bo'yicha ayblanuvchi tariqasida ishtiroy etishga jalb qilinishi lozim bo'lgan shaxs aniqlanmagan;
- 2) ayblanuvchining qayerda ekanligi noma'lum bo'lgan;
- 3) ayblanuvchi O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqib ketgan, basharti uning tergovga kelishini ta'minlash imkoniyati bo'lmasa;

4) ayblanuvchi ishni yuritishda uning ishtirok etishini istisno etadigan og‘ir va davomli, lekin davolab bo‘ladigan kasallikka chalingan hollarda to‘xtatilishi belgilab o’tilgan.

Davlatimiz tomonidan demokratik davlat qurish jarayonida jinoyat sodir etgan shaxslarni aniqlash va fosh etish, qidiruvdagi ayblanuvchilarni ushslash choralarini ko‘rish, dastlabki tergovni protsessual qonunchilikda ko‘rsatilgan asoslar bo‘yicha to‘xtatish, shu bilan bog‘liq protsessual hujjatlarni rasmiylashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sudga qadar ish yuritish bosqichlarida dastlabki tergovni to‘xtatishda protsessual normalar talablaridan kelib chiqqan holda ishlash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlarga qaramay, shu kunga qadar ayblanuvchi tariqasida ishda ishtirok etishi lozim bo‘lgan shaxs aniqlanmaganligi munosabati bilan jinoyat ishi yuzasidan dastlabki tergovini asossiz to‘xtatish, qidiruvdagi shaxslarni turgan joyini aniqlash va ushslash bo‘yicha tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar bilan hamkorlikning etarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi, ayblanuvchi O‘zbekiston hududidan tashqarida bo‘lgan hollarda uni ushslash bo‘yicha horijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan hamkorlik qilishda kamchiliklarga yo‘l qo‘yilayotganligini kuzatishimiz mumkin. Shunga ko‘ra mazkur salbiy holatlarni oldini olish maqsadida Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan dastlabki tergovni to‘xtatish, qayta tiklash va qidiruv e’lon qilish bilan bog‘liq qoidalar mazmunini davr talabi bo‘yicha qayta ko‘rib chiqish zaruriyati tug‘ilmoqda.

Mazkur qonunchilik sohasida olib borgan ilmiy izlanishlarim natijasida qonunchilikdagi bir qator normalarni takomillashtirish lozimligini ta’kidlab o’tmoqchiman.

1. O‘zbekiston Respublikasi JPK ning 364-moddasiga muvofiq, dastlabki tergovni to‘xtatishning 4 ta asosi keltirilgan bo‘lib, ular orasida mamlakatda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan pandemiya yoki boshqa favqulodda holatlar joriy qilingan vaqtida jinoyat ishlari yuzasidan protsessual muddatlar va dastlabki tergovni to‘xtatish masalalari keltirilmagan. Masalan, 2020-2021 yillar davomida butun dunyo miqyosida “Koronavirus” epidemiyasi tarqalganligi va bu davrda sud-tergov amaliyotida surishtiruvchi, tergovchi, prokurorlar mazkur holat yuzasidan qiyinchiliklarga duch kelishdi. Mamlakatimizda e’lon qilingan karantin munosabati bilan yo‘llar yopilgani bunday vaziyatda dastlabki tergovni amalga oshirishni imkonli yo‘qligi hamda Jinoyat-Protsessual Kodeksida dastlabki tergovni to‘xtatish uchun asoslar keltirilmaganligi sababli, mazkur davrda Tergov va Prokuratura organlari o‘z ish yurituvlaridagi jinoyat ishlari yuzasidan muddatlar o‘tib ketishini oldini olish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi JPKning 364-moddasasi 1-qismi, 1-bandi ya’ni “ayblanuvchining shaxsi noma’lum bo‘lsa” bandi bilan dastlabki tergovni to‘xtatishdi.

Shu sababli kelgusida qonunchilikdagi mazkur bo’shliqni to’ldirish va bunday holatlarda protsessual muddatlarni o‘tib ketishini oldini olish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-Protsessual Kodeksining 364-moddasi 1-qismiga qo‘srimcha 5-band sifatida “Cheklovchi tadbirlar (karantin) yoki favqulodda holat joriy etilganda jinoyat ishi bo‘yicha tergov harakatlarini amalga oshirishning vaqtincha imkonli bo‘lmagan hollarda” degan mazmundagi band kiritilishni taklif etaman.

2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-Protsessual Kodeksining 364-moddasida keltirilgan dastlabki tergovni to‘xtatishning to‘rtta asoslaridan tashqari JPKning 569-moddasida esa shaxs

tibbiy muassasaga joylashtirilgan davrda, basharti boshqa protsessual harakatlarni o'tkazishga hojat bo'lmasa, ishni yuritish to'xtatib turilishi mumkinligi ko'rsatilgan.

Fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-Protsessual Kodeksidagi dastlabki tergovni to'xtatishning barcha asoslari bitta normada joylashishi maqsadga muvofiqdir.

Shu sababli O'zbekiston Respublikasi JPKning 364-moddasi 1-qismini qo'shimcha 6-band ya'ni "shaxs tibbiy muassasaga joylashtirilgan davrda, basharti boshqa protsessual harakatlarni o'tkazishga hojat bo'lmasa" degan mazmundagi yangi band bilan to'ldirib, ushbu qoidani O'zbekiston Respublikasi JPKning 569-moddaning mazmunidan chiqarilishi taklif etiladi.

3. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi JPK da belgilanganiga ko'ra, dastlabki tergov muddati uch oyni tashkil qilib, biroq JPKda surishtiruv dastlabki tergov bosqichida shunday tergov harakatlari mayjudki, ular uch oydan ortiq muddat davom etadi. Jumladan, pochta-telegraf jo'natmalarini xatlab qo'yish, telefon va boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish (6 oygacha) kabilar.

Surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida ayblanuvchi tariqasida jalb qilinishi lozim bo'lgan shaxsni aniqlash yoxud ayblanuvchining qayerda ekanligini aniqlash maqsadida uzoq davom etadigan tergov harakatlarini o'tkazish zarurati mayjud bo'lsada, JPKga ko'ra dastlabki tergov to'xtatilganidan keyin tergov harakatlarini o'tkazishga yo'l qo'yimasligi belgilangan.

Amaliyotda esa qidiruv e'lon qilib to'xtatiladigan har bir jinoyat ishi bo'yicha pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash tergov harakati o'tkazilib, ushbu tergo harakati dastlabki tergov to'xtatilganidan keyin ham davom etadi.

Bizning fikrimizcha, telefon va boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish va pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash tergov harakatlarini dastlabki tergov to'xtatilganidan keyin ham davom ettirilishiga ruxsat berish masalasini O'zbekiston Respublikasi JPKga kiritilishi dastlabki tergovni to'xtatish asoslarining tezkroq bartaraf etish imkoniyatlari tezlashishiga, tergovchining yuritividagi jinoyat ishlar soni kamayishi orqali ish faoliyati samaradorligining oshishiga olib keladi. Shuningdek, jinoyat sodir etgan shaxs jazosiz qolishining oldi olinadi.

Yuqoridagilarga asoslanib, munozarali qarashlari bilan o'zaro kelishtirgan holda jinoyat ishi to'xtatilganidan keyin zarur bo'ladijan tergov harakatlarini o'tkazishda, bizningcha, dastlabki tergovni to'xtatgunga qadar boshlangan uzoq davomli tergov harakatlarini o'tkazish mumkinligi e'tirof etilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi JPKning 370-moddasi kuyidagi mazmunda yangi uchinchi qism bilan to'ldirilishi maqsadga muvofiq:

«Jinoyat ishi bo'yicha o'tkazilayotgan pochta-telegraf jo'natmalarini xatlash va telefon hamda boshqa so'zlashuv qurilmalari orqali olib boriladigan so'zlashuvlarni eshitib turish tergov harakatlari jinoyat ishi to'xtatilgandan keyin ham davom ettirilishi mumkin».

4. O'zbekiston Respublikasi JPKning 365-moddasida keltirilgan normaga ko'ra ayblanuvchining turgan joyi noma'lum bo'lganda tergovchi uning turgan joyini aniqlash uchun zarur bo'lgan barcha choralarini ko'rishi, zarur hollarda esa, unga nisbatan qidiruv e'lon qilishi shart ekanligi belgilangan. Mazkur moddaning 3-qismida esa qidiruv dastlabki tergov o'tkazilayotganida ham, shuningdek dastlabki tergov to'xtatilganidan keyin ham e'lon qilinishi mumkinligi ko'rsatib o'tilgan.

Fikrimizcha, qidiruvni dastlabki tergov to‘xtatilganidan keyin e’lon qilinishi mantiqqa zid bo‘ladi. Chunki ayblanuvchining qayerda ekanligi noma’lum bo‘lgan jinoyat ishlari bo‘yicha u yo‘qligida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan barcha protsessual harakatlar to‘liq bajarilib, shaxsga nisbatan sirtdan ayblov e’lon qilinib, ehtiyyot chorasi qo‘llanilishi lozim.

Extiyot chorasini sirtdan qo‘llash uchun esa ayblanuvchini topish bo‘yicha amalga oshirilgan barcha choralar o‘z samarasini bermaganligi bois qidiruv e’lon qilinganligi asos bo‘ladi.

Bundan tashqari, qidiruv e’lon qilish masalasini paysalga solinishi tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar tomonidan shaxsni izlab topish bo‘yicha imkoniyatlarining pasayishiga olib kelishi mumkin.

Shunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi JPKning 365-moddasi 3-qismini quyidagi tahrirda “Ayblanuvchini qaerda ekanligi aniqlash bo‘yicha amalga oshirilgan barcha choralar o‘z samarsini bermagan hollarda darhol qidiruv e’lon qilinishi lozim.” –deb bayon etilishi taklif etiladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, bugungi kunda sud-huquq tizimini isloh qilish, avvalo inson manfaatlarini oliy qadriyat sifatida tan olish, uning huquq va erkinliklarini himoya qilish va mayjud huquqiy normalarni amalga tatbiq etishning samaradorligini oshirish hamda qonun normalarini erkinlashtirishga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, mamlakatimizda sud-huquq tizimini huquqiy davlatni shakllantirishning muhim tarkibiy qismi sifatida chuqr isloh etish va erkinlashtirish bo‘yicha yangi konsepsiya hayotga tatbiq qilishni zamonning o‘zi talab etmoqda. Bu borada qonunchiligidan bir qator samarali ishlar olib borilishi, uni xayotga tatbiq etilishi yuzasidan amaliy choralar ko‘rishni, chuqr o‘ylangan qonunchilik tizimi rivoji ishlab chiqilmoqda.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T., 2023 y.
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi. – T. 2024 y
3. Inog‘omjonova Z.F. To‘laganova G.Z. Jinoyat protsessi muammolari. O‘quv qo‘llamma /yu.f.d. prof. M.H. Rustamboevning umumiy tahriri ostida. –T.: TDYUI nashriyoti. – 2007..
4. Matjanov A.A “Jinoyat sodir etgan shaxslar qidiruvini takomillashtirishning jinoyat-protsessual va kriminalistik jixatlari” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi.
5. Galaxova A. G. Sub’ekt prestupleniya i ego tolkovaniya v sudebnoy praktike // Rossiyskaya yustitsiya. – 2008.
6. Davidov A., Malkov V. Neodrakratnost prestupleniy i ego ugolovno-pravovoe znachenie // Rossiyskaya yustitsiya. – 2000. – № 1.
7. Matlyubov B. B. Realnaya sovokupnost ili edinichnoe prestuplenie // Hozirgi zamon huquqshunoslik ilmini egallash yo‘lida. – T., O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2004.
8. Inson huquqlarini sud va suddan tashqarida himoya qilish muammaolari. – T.: TDYUI nashriyoti, 2005.
9. To‘laganova G. Jinoyat protsessida shaxsning huquqlari va qonuniy manfaatlarini muhofaza etish yuzasidan ba’zi bir fikrlar//Huquq-Pravo-Law, 2003,

10. Qo'shaev N.M., Fayziev SH.F. Jinoyat protsessida o'tkaziladigan tergov harakatlari. O'quv qo'llanma/ yu.f.n. dots. Z.F. Inog'omjonovaning tahriri ostida. – T.: TDYUI nashriyoti, 2006.